

**HARBIY TA'LIMDA MILLIY IDENTIKLIK TARBIYASI ASOSIDA TALABALARDA
(KURSANTLARDA) VATANPARVARLIKNI RIVOJLANTIRISHNING PEDAGOGIK SHAKLI,
METODI VA VOSITALARI**

**ПЕДАГОГИЧЕСКАЯ ФОРМА, МЕТОД И СРЕДСТВА РАЗВИТИЯ ПАТРИОТИЗМА У
СТУДЕНТОВ (КУРСАНТОВ) ДОПРИЗЫВНОГО ВОЕННОГО ОБУЧЕНИЯ НА ОСНОВЕ
ВОСПИТАНИЯ НАЦИОНАЛЬНОЙ ИДЕНТИЧНОСТИ**

**PEDAGOGICAL FORM, METHOD AND MEANS OF DEVELOPING PATRIOTISM IN
STUDENTS (CADETS) ON THE BASIS OF THE EDUCATION OF NATIONAL IDENTITY IN
MILITARY EDUCATION**

Turgunbayev Toxirjon Abdugafurovich¹

¹Turgunbayev Toxirjon Abdugafurovich

– Farg'ona davlat universiteti harbiy ta'lim fakulteti
katta o'qituvchisi.

Annotatsiya

Ushbu maqolada bugungi kunda kechayotgan dunyoning globalashuvi jarayonlari ijtimoiy fanlarda «identiklik» masalasiga berilayotgan o'ziga xos yondashuvlarni atrof-muhitda ro'y berayotgan sotsiomadaniy o'zgarishlar asosida bayon etilgan.

Аннотация

В данной статье описываются конкретные подходы к проблеме "идентичности" в социальных науках в происходящих сегодня процессах глобализации мира на основе объяснения научными терминами социокультурных изменений, происходящих в окружающей среде.

Abstract

This article describes specific approaches to the problem of "identity" in the social sciences in the processes of globalization of the world taking place today based on the explanation of socio-cultural changes occurring in the environment in scientific terms.

Kalit so'zlar: identiklik, ijtimoiy rivojlanish, sotsiomadaniy ehtiyojlar, identifikatsiya, mansublik hissi.

Ключевые слова: идентичность, социальное развитие, социокультурные потребности, идентификация, чувство принадлежности.

Key words: identity, social development, sociocultural needs, identification, sense of belonging.

KIRISH

Muayyan millatning jahon hamjamiyatida o'ziga xos mavqe va o'ringa ega bo'lishi uning ko'p sonli yoki kam sonli bo'lishiga bog'liq emas. Aksincha, o'zida milliy xususiyatlarni namoyon eta olish, millat vakillarining o'z haq-huquqlarini chuqur anglash, o'zga millatlarga ham moddiy va ma'naviy jihatdan qaram bo'lmasligi, mustaqil holda mavjud bo'lishi uning xalqaro maydondagi maqomini belgilab beradi.

Xalqaro munosabatlar borasida o'z qarashlarini dadil bildira olish, millat sha'ni va obro'sini oshirish uchun kurashish, o'zga millatlarda o'ziga nisbatan salbiy munosabatlar shakllanishining oldini olishga intilish millat nufuzini yanada oshiradi.

Millatning xalqaro maydondagi mavqeyini belgilashda, shuningdek, jamiyatda ustuvor o'rin tutuvchi taraqqiyparvar g'oyalar, jamiyat hayotining ular negizida yo'lga qo'yilishi ham muhim ahamiyatga ega. Shu sababli O'zbekiston Respublikasining mustaqilligi yillarida jamiyatda milliy istiqloq g'oyasi asoslarini shakllantirish, yosh avlodni ana shu g'oya ruhida tarbiyalashga alohida e'tibor qaratildi.

Binobarin, bugungi kunda xalqaro munosabatlarning barqarorlashuvida mustaqil davlatlar tomonidan ilgari surilayotgan g'oyaviy qarashlar yetakchi o'rin tutmoqda. Mafkuraviy g'oyalar kurashi, mafkuraviy ta'sirlarning tobora keskinlashuvi mustaqil davlatlar taraqqiyotiga ziyon yetkazishining oldini olish, bugungi kunning dolzarb muammosiga aylanmoqda. "... Mafkuraviy ta'sirlar salbiy oqibatlarga olib kelmasligi uchun nima qilish kerak? Buning yo'li – odamlarimiz, avvalambor, yoshlarimizning iymon-e'tiqodini mustahkamlash, irodasini baquvvat qilish, ularni o'z mustaqil fikriga ega bo'lgan barkamol insonlar etib tarbiyalash.

ADABIYOTLAR TAHLILI VA METODLAR

Chaqiriqqacha harbiy ta'limda milliy identiklik tarbiyasi (kursant)larda vatanparvarlikni rivojlantirishdan iborat bo'lib, ishning maqsadi va taklif etilayotgan gipoteza quyidagi vazifalarni belgilab berdi:

- chaqiriqqacha harbiy ta'limda milliy identiklik tarbiyasi asosida talabalarda vatanparvarlikni rivojlantirishga ta'sir ko'rsatuvchi ijtimoiy-siyosiy va psixologik-pedagogik omillarning o'zaro aloqadorligini aniqlash;

- chaqiriqqacha harbiy ta'limda milliy identiklik tarbiyasi asosida talabalarda vatanparvarlikni rivojlantirishning nazariy asoslarini ochib berish;

- chaqiriqqacha harbiy ta'limda milliy identiklik tarbiyasi asosida talabalarda vatanparvarlikni rivojlantirishga oid maxsus ta'lim texnologiyasini akmeologik yondashuv asosida rivojlantirish metodikasini asoslash;

- chaqiriqqacha harbiy ta'limda milliy identiklik tarbiyasi asosida talabalarda vatanparvarlikni rivojlantirishning bosqichlari, mazmuni, shakl, metod va vositalarini yaxlitlikda o'z ichiga qamrab olgan ta'lim modeli va texnologiyasini ishlab chiqish.

- chaqiriqqacha harbiy ta'limda milliy identiklik tarbiyasi asosida talabalarda vatanparvarlikni rivojlantirishning integrallashgan metodik tizimini akmeologik yondashuv asosida takomillashtirish.

Bu vazifalarni hal etish uchun quyidagi tadqiqot usullaridan foydalanildi: pedagogik, psixologik va metodik adabiyotlarni o'rganish, nazariy va qiyosiy tahlil, ijtimoiy so'rov (anketa, suhbat, intervyu, tashxis), pedagogik kuzatish, modellash, pedagogik tajriba, ekspert baholash, matematik statistik qayta ishlash.

NATIJALAR VA MUHOKAMA

Tadqiqotda belgilangan vazifalar Farg'ona davlat universitetida o'tkazilgan pedagogik tajribalar davomida hal etildi. Respondentlar sifatida Chaqiriqqacha harbiy ta'lim yo'nalishi 1, 2 va 3-bosqich 110 nafar talabalari tanlab olindi. Pedagogik tajriba jarayonida tajriba guruhidagi talabalarga «Talabalarda vatanparvarlikni rivojlantirish tizimini takomillashtirish asoslari» fanini bo'yicha biz tomonimizdan ishlab chiqilgan o'quv qo'llanma asosida mashg'ulotlar olib borildi.

Tadqiqot ishlariga jalb etilgan respondent-talabalarining «Talabalarda vatanparvarlikni rivojlantirish tizimini takomillashtirish asoslari» fani asoslari bo'yicha nazariy va amaliy bilimlarining maxsus metodika yordamida boyiganligini obyektiv baholash maqsadida jadval ko'rsatkichlari matematik-statistik metod yordamida tahlil qilindi. Statistik tahlil uchun Student-Fisher kriteriyasi tanlandi. Metodika samaradorligini obyektiv baholash uchun ta'kidlovchi tajriba natijalarini ifodalovchi son ko'rsatkichlarini matematik-statistik metod bo'yicha tahlil etish to'g'ri deb topildi. Student-Fisher kriteriyasi g'oyasiga tayangan holda asosiy formulaga solish uchun respondent-talabalarining davrida qayd etilgan boshlang'ich harbiy tayyorgarlik darajasini ifodalovchi malaka ko'rsatkichlari qabul qilindi.

Tanlanmalarning daraja ko'rsatkichlari (ta'kidlovchi tajriba)

Guruhlar	Tanlanmalar	Respondentlar soni	Daraja ko'rsatkichlari		
			Yuqori	O'rta	Past
Tajriba guruhi	1-tanlanma X_i	$n_1 = 360$	90	163	107
Nazorat guruhi	2-tanlanma Y_j	$n = 360$	78	145	137

Shunday qilib, biz tomonimizdan ishlab chiqilgan «Talabalarda vatanparvarlikni rivojlantirish tizimini takomillashtirish asoslari» fani bo'yicha o'quv qo'llanmasidan foydalanishda chaqiriqqacha harbiy ta'limda milliy identiklik tarbiyasi asosida talaba (kursant)larda vatanparvarlikni rivojlantirishning yuqori samaradorligiga erishganligini ko'rsatdi.

XULOSA

Xulosa qilib shuni aytish mumkinki, tadqiqot natijalari tajribada qo'llanilgan mashqlar to'plamining samaradorligini tasdiqladi. Pedagogik ta'sir tajriba guruhida ko'rsatkichlarning samarali o'sishini ta'minladi. Bu fakt chaqiriqqacha harbiy ta'limda milliy identiklik tarbiyasi asosida talaba (kursant)larda vatanparvarlikni rivojlantirish samaradorligini oshirishi haqidagi gipotezani tasdiqladi.

ADABIYOTLAR RO'YXATI

1. O'zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasi. –Toshkent: O'zbekiston NMIU, 2017.
2. «Ta'lim to'g'risida»gi O'zbekiston Respublikasining Qonuni. –Toshkent, O'zbekiston, 1997. (Qonun hujjatlari ma'lumotlari milliy bazasi, 05.05.2018 y., 06/18/5430/1164-son).
3. O'zbekiston Respublikasi Kadrlar tayyorlash milliy dasturi. –Toshkent: O'zbekiston, 1997.

4. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining «Yoshlarga oid davlat siyosati samaradorligini oshirish va O'zbekiston yoshlar ittifoqi faoliyatini qo'llab-quvvatlash to'g'risida»gi PF-5106-son Farmoni. O'zbekiston Respublikasi qonun hujjatlari to'plami, 2017 y., 27-son, 607-modda.
5. O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining 105-1-sonli «O'zbekiston Respublikasining Harbiy doktrinasini» to'g'risidagi Qarori 1995 yil 30 avgust
6. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining PQ-436-II-son «Umumiy harbiy majburiyat va harbiy xizmat to'g'risida»gi Qarori. 2002 yil 12 dekabr.
7. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining «O'zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish bo'yicha Harakatlar strategiyasi to'g'risida»gi Farmoni//O'zbekiston Respublikasi qonun hujjatlari to'plami, 2017 y., 6-son, 70-modda).
8. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining «Fuqarolarning O'zbekiston Respublikasi Qurolli Kuchlarida muddatli harbiy xizmatni o'tash shart-sharoitlarini takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida»gi PF-4054 sonli Farmoni 2008 yil 20 noyabr.
9. Степаненко О.А. Поиск идентичности как константа немецкой культуры. // Журнал: Вестник Ленинградского гос.унив. им. А.С.Пушкина. 2013. № 7. – С. 80-90
10. Левин К. Теория поля в социальных науках. СПб., 2000. – С. 67-68
11. Forobiy Abu Nasr. Fozil odamlar shahri. Toshkent, Abdulla Qodiriy nomidagi Xalq me'rosi nashriyoti, 1993. – B.186.